

## О‘ЗBEK TILINING XORIJD A O‘QITILISHI VA O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI.

Chirchik state pedagogical university  
a student of Tourism faculty  
Foreign languages and literature, a 3 rd  
year student

**Sobirova Farangiz Bobirjonovna**  
sobirovafarangiz666@gmail.com

Co-author: **Z.A. Umirova**  
Teacher at Chirchik State Pedagogical  
University  
Email adress: zamira\_07\_91@mail.ru

*Annotatsiya:* Bugungi kunda yangilanayotgan O‘zbekistonda jadal olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-demokratik islohotlar ta’lim sohasida ham tub o‘zgarishlar yuz berishiga, uzluksiz ta’lim tizimining har bir bo‘g‘inida o‘zbek tilini o‘qitishning zamonaviy metodikasini yaratish, o‘quv-uslubiy ta’minotini yangilash bo‘yicha amaliy tajribalar o‘tkazilishiga olib keldi. Ma’lumki, til ta’limida bir-biridan farq qiladigan ikki xil

Yondashuv – tilni ona tili sifatida o‘qitish va tilni ikkinchi til sifatida o‘qitish farqlanadi. Ayni vaqtda tilni ikkinchi til sifatida o‘qitishning o‘zi ham tilni til muhitida o‘qitish (respublikamizda yashovchi turli millatlar vakillariga o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitish) hamda til muhiti mavjud bo‘lmagan holatda o‘qitish (xorijiy mamlakatlarda o‘zbek tilini o‘qitish) yo‘nalishlariga bo‘linadi. Har bir yo‘nalishning o‘ziga xos tamoyillari mavjud bo‘lib, ta’lim mazmuni va metodlari shunga mos holda tanlanadi. Bu har bir yo‘nalishning o‘quv-uslubiy dasturiy ta’minotini ham yondashuvlar va yo‘nalishlardan kelib chiqib ishlab chiqishni taqozo etadi.

Jumladan, respublikamizda o'zbek tilini milliy maktablarda ona tili sifatida o'qitish mazmuni, albatta, ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitish mazmunidan farq qiladi va ushbu ta'lim mazmuni o'ziga xos metodikani va shunga mos o'quv-uslubiy ta'minotni ham talab etadi.

*Аннотация:* социально-экономические, правовые и демократические реформы, которые сегодня активно проводятся в обновляющемся Узбекистане, привели к коренным изменениям в сфере образования, проведению практических экспериментов по созданию современной методики преподавания узбекского языка в каждом звене системы непрерывного образования, обновлению учебно-методического обеспечения. Как известно, в языковом образовании различают два вида

Различают подход-обучение языку как родному и обучение языку как второму языку. При этом само обучение языку как второму разделяется на обучение языку в языковой среде (преподавание узбекского языка в качестве государственного языка представителям различных национальностей, проживающим в нашей республике) и обучение в условиях отсутствия языковой среды (преподавание узбекского языка в зарубежных странах). Каждое направление имеет свои принципы, соответственно подбираются содержание и методы обучения. Это требует разработки как учебно-методического программного обеспечения каждого направления, так и подходов и направлений.

В частности, содержание преподавания узбекского языка как родного в национальных школах в нашей республике, безусловно, отличается от содержания преподавания узбекского языка в школах, где обучение ведется на других языках, и это содержание образования требует определенной методики и соответствующего учебно-методического обеспечения.

*Abstract:* Socio-economic, legal and democratic reforms, which are actively being carried out in a rejuvenating Uzbekistan today, have led to fundamental changes in the

field of education, practical experiments on the creation of modern methods of teaching the Uzbek language in each link of the continuing education system, and the updating of educational and methodological support. As you know, there are two types of language education

There is a distinction between the approach of teaching a language as a mother tongue and teaching a language as a second language. At the same time, language teaching itself as a second language is divided into language teaching in a linguistic environment (teaching Uzbek as the official language to representatives of various nationalities living in our republic) and learning in the absence of a language environment (teaching Uzbek in foreign countries). Each direction has its own principles, and the content and teaching methods are selected accordingly. This requires the development of both educational and methodological software for each area, as well as approaches and directions.

In particular, the content of teaching Uzbek as a mother tongue in national schools in our republic is certainly different from the content of teaching Uzbek in schools where instruction is conducted in other languages, and this content of education requires a certain methodology and appropriate educational and methodological support.

*Kalit so'zi:* Yondoshuv, o'zbek tilida, o'qitish, jarayon, xorijliklar, individual, dastlabki muloqot, Veb-saytlar

*Ключевое слово:* подход, на узбекском языке, обучение, процесс, иностранцы, индивидуальный, предварительное общение, веб-сайты.

*Keywords:* approach, in Uzbek, learning, process, foreigners, individual, preliminary communication, websites.

Ayni vaqtda o'zbek tilini respublikamizda yashovchi o'zga tillar vakillariga o'qitish mazmuni ham xorijliklarga o'zbek tilini o'qitish mazmunidan farq qiladi. Ko'p millatli respublikamizda yashovchi turli millatlar vakillari esa shu yerda tug'ilib o'sib,

o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar muhitida yashab kelmoqdalar, o‘zbekcha nutqni har kuni tinglab eshitib turganliklari tufayli ular o‘zbek tilida muayyan so‘z zahirasi ega, muayyan darajada tinglab tushunish, gapirish va boshqa til ko‘nikmalariga egalar. O‘zbek tilini xorijiy mamlakatlarda va respublikamizga ish, o‘qish munosabati bilan kelayotgan xorijliklarga o‘rgatishda esa 0 darajadan boshlashni va bunda chet tillarini o‘qitish mazmuni va metodikasini qo‘llashni taqozo etadi. Bugungi kungacha o‘zbek tilini xorijliklarga o‘qitish yo‘nalishi tor doirada ko‘proq respublikamizga ish, o‘qish munosabati bilan kelgan xorijlik 1-2ta fuqarolarga individual tarzda yoki dastlabki muloqot yuritishga o‘rgatishga qaratilgan qisqa kurslardan iborat bo‘lgani hech kimga sir emas. Ushbu jarayonda qo‘llanib kelingan o‘quv-uslubiy materiallar ham ta‘lim beruvchi o‘zbek tili o‘qituvchilarining yoki o‘zbek tilini o‘rgatuvchilarning (ayrim hollarda hatto bevosita mutaxassis bo‘lmagan boshqa soha vakillari masalan, chet tili o‘qituvchilari shu ish bilan shug‘ullangani uchun, ularni o‘zbek tilini o‘rgatuvchilar deb atash ham mumkin) o‘zlari tayyorlagan materiallardan iborat bo‘lib, ko‘p hollarda tizimli dasturiy ta‘minotni tashkil etmas edi. Qayd etish kerakki, ayrim xorijiy mamlakatlarning oliy ta‘lim muassasalarida (masalan, AQShning Indiana, Oksford universitetlari, Rossiya Federatsiyasining MDU, MDLU, MDXMI, Germaniyaning Gumboldt universiteti, Koreyaning Pusan universiteti, Turkiya universitetlari va h.k.) faoliyat yuritayotgan o‘zbek tili bo‘limlarining o‘quv-dasturiy ta‘minoti ham o‘sha ta‘lim muassasalarida dars beradigan o‘qituvchilar tomonidan individual tarzda tuzilgan. Jumladan, Moskva davlat lingvistik universitetida ikkinchi til sifatida o‘qitiladigan “O‘zbek tili” fani 2ta dastur asosida haftasiga 5 soatdan o‘qitilishi rejalashtirilgan (“Prakticheskiy kurs uzbekskogo yazыka”) (haftasiga 3 soat) va “Kasbiy muloqot yuritish” (haftasiga 2 soat) bo‘lsa, Moskva davlat universitetida haftasiga 4 soatdan “O‘zbek tili” dasturi asosida o‘qitiladi. Hozirgi kunga kelib O‘zbekistonning jahon hamjamiyatidagi obro‘ e‘tiborining ortib borishi respublikamizga va o‘zbek tilini o‘rganishga qiziqishning kuchayishiga, ko‘plab xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta‘lim muassasalarida o‘zbek tili bo‘limlarining va hatto o‘zbek tili litsey va kollejarining ochilishiga olib keldi. Bugungi kunda ushbu

ta'lim muassasalarini o'quv-uslubiy materiallar va hatto, ta'lim beruvchi kadrlar bilan ta'minlash masalasi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Biroq ayni vaqtda bu holat respublikamizda bu sohada maxsus tayyorlangan kadrlar ham, bu yo'nalish uchun o'quv-uslubiy ta'minot ham mavjud emasligini yuzaga chiqardi. Xorijliklarga o'zbek tilini o'qitish bo'yicha respublikamizda va respublikamizdan tashqarida chop etilgan sanoqli darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalar, so'zlashgichlar va lug'atlar mavjudligi, biroq ularning birortasi ham tizimli dasturiy ta'minot asosida yaratilmaganligi ayon bo'ldi. Afsuski, xorijliklarga o'zbek tilini o'qitish bo'yicha bugungi kunda turli loyihalar asosida ishlanayotgan o'quv qo'llanmalar ham tizimli o'quv dasturiy ta'minot asosida yaratilmayapti. Mavjud qo'llanmalar tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning deyarli 80%i "Chet tillarini egallashning Umumevropa kompetensiyalari"da [1] qayd etilgan til ko'nikmalarining A1 darajasiga muvofiq holda yaratilgan, hatto ayrimlari A1.1. va A1.2. daraja ko'rsatkichlari bilan qismlarga ajratib berilgan bo'lsa-da, biroq aynan shu daraja ko'rsatkichlari uchun belgilangan ta'lim mazmuni va leksik-grammatik minimum qaysi dastur asosida ajratilgani, ushbu boshlang'ich darajadan keyingi A2 va V1 darajalarda ta'lim mazmuniga nimalar kiritilishi, qaysi grammatik ma'lumotlar va lug'aviy zahira berilishining dasturiy ta'minoti ishlab chiqilmagani bois ularda har xil materiallar taqdim etilgan.[2]

#### 1. O'zbek tilini o'rgatish uchun materiallar:

O'zbek tili grammatikasi va lug'ati: O'zbek tilining asosiy grammatikasi va lug'atini o'z ichiga olgan kitoblar. Masalan: "O'zbek tilining grammatikasi" (O'zbek tilining asosiy qoidalari). "O'zbekcha lug'at" (Turkiy tillar bilan solishtirish orqali tushunishni osonlashtirish). Onlayn kurslar: Xorijda o'zbek tilini o'rgatishga qaratilgan onlayn platformalar va video darslar. Siz Udemy, Coursera yoki boshqa til o'rgatish saytlarida o'zbek tili bo'yicha kurslar yaratishingiz mumkin. Til o'rgatish uchun mobil ilovalar: O'zbek tilini o'rganish uchun mobil ilovalar ham foydali bo'lishi mumkin, masalan: Duolingo (agar ular o'zbek tilini qo'llab-quvvatlasa). Memrise (turli

tillarni o'rgatishda yordam beradi). Videolar va audio materiallar: YouTube, Vimeo va boshqa video platformalarda o'zbek tili darslari va til o'rgatish videolari.

## 2. Xorijda hamkorlik qilish imkoniyatlari:

Til almashish platformalari: Xorijda o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha talab yuqori bo'lishi mumkin. Shu sababli, siz til almashish platformalarida (masalan, Tandem, HelloTalk) o'zbek tilini o'rgatishni boshlashingiz mumkin. Bular tilni o'rganayotgan shaxslar bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi. O'zbek tilini o'rgatish bo'yicha universitetlar va kurslar bilan hamkorlik: Agar sizning maqsadingiz o'zbek tilini rasmiy dars sifatida taqdim etish bo'lsa, xorijdagi universitetlar yoki til maktablari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlari mavjud. Bu kabi hamkorliklar uchun o'quv dasturlari va metodologiyalarni ishlab chiqish muhim. Veb-saytlar va bloglar yaratish: O'zbek tilini o'rgatish bo'yicha o'z veb-saytingiz yoki blogingizni yaratish orqali ham xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatishingiz mumkin. Bu orqali bepul materiallar, darslar, testlar va interaktiv mashqlarni taqdim etish mumkin.

## 3. Resurslar:

O'zbek tilidagi kitoblar va maqolalar: O'zbek tilining turli jihatlarini, madaniyat, tarix haqida kitoblar. Bu xorijda o'zbek tilini o'rgatishda yordam beradi. Mahalliy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik: O'zbek tilini o'rgatishda xalqaro tashkilotlar, madaniyat markazlari yoki elchixonalar bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqib. Bunday tashkilotlar turli tadbirlar, kurslar va seminarlar o'tkazishi mumkin.

## 4. Bepul onlayn resurslar:

O'zbek tili darslari: O'zbek tiliga oid bepul darslar va materiallarni taqdim etadigan onlayn saytlar. Misol uchun, Lingva va Sichqoncha kabi platformalar. O'zbek tili bo'yicha YouTube kanallari: Ko'plab YouTube kanallari, masalan, "O'zbek tili o'rgatish" mavzusidagi videolarni yaratish va ularni xorijliklarga taqdim etish.

Respublikamizda “O‘zbek tili” fani bo‘yicha Davlat ta’lim standartlari talablarida ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarning boshlang‘ich sinflari uchun o‘zbek tilini o‘rganishning A1-boshlang‘ich darajasi, 5-9-sinflar uchun A2- tayanch darajasi, 10-11-sinflar va o‘rta maxsus ta’lim uchun V1- asosiy darajasi va oliy ta’lim uchun B2- yuqori darajasi belgilangan va o‘quv dasturlari, darsliklar shu asosda yaratib kelinmoqda [3].

#### Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Практический курс второго иностранного языка (узбекский язык, рабочая программа)/ Составители: Мухитдинова Х.С., Харламова Н.С. –Москва, МГЛУ, 2010.
2. Общевропейские компетенции владения иностранным языком: изучение, обучение, оценка. – М.: Изд-во МГЛУ (русская версия), 2003. – С. 256.
3. Хоријликларга О‘zbek tilini o‘qitishning o‘quv-dasturiy ta‘minotini yaratish Muhridinova Hadicha Sobirovna Pedagogika fanlari doktori, professor O‘zbekiston davlat jaxon tillari universiteti 2020.